

MTTDA NUTQ O‘STIRISH VA SAVODXONLIKKA O‘RGATISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Jondor pedagogika kolleji o‘qituvchisi

Sadullayeva Shohida Salimovna

Annotatsiya: Usbu maqolada tayyorlov guruhlarini o‘quvchilarining savod o‘rgatish darslarida imloviy savodxonlikni o‘rgatish usullari, mazkur darslarni yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilish, o‘qitish printsiplari va metodlariga qat’iy amal qilish ta’kidlab o‘tilgan. Imloviy savodxonlik o‘quvchilarning nutqini o‘stirishi, yanangi so‘zlar hisobiga lug‘atini boyitishi, so‘zlarni turli grammatik formalarda qo‘llashi, ularning talaffuzi ustida ishlash bilan bir vaqtda shakllantirilishi va uning bola tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishi kabi xususiyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, imlo, ona tili, so‘z, mashq, ta’lim, tarbiya, tizim, muammo, faol, umumlashtirish, mustahkamlash, noan’anaviy, interfaol, innovatsion, orfografiya, fonetika, uslub

Аннотация: В данной статье рассмотрена методика обучения орфографической грамоте на занятиях по обучению грамоте учащихся подготовительных групп, организация этих занятий с учетом возраста, уровня и способности к получению знаний, с упором на строгое соблюдение пройденных принципов и методов обучения. Орфографическая грамотность развивает речь учащихся, обогащает их словарный запас новыми словами, употребляет слова в разных грамматических формах, формируется одновременно с работой над их произношением, влияет на мышление ребенка.

Ключевые слова: грамотность, орфография, родной язык, слово, упражнение, образование, образование, системный, проблемный, активный, обобщение, закрепление, нетрадиционный, интерактивный, инновационный, орфография, фонетика, стиль

Abstract: In this article, the methods of teaching spelling literacy in the literacy classes of the pupils of the preparatory groups, the organization of these classes taking into account the age, level and ability to receive knowledge, emphasizing the strict adherence to teaching principles and methods passed. Spelling literacy develops students' speech, enriches their vocabulary with new words, uses words in different grammatical forms, is formed simultaneously with working on their pronunciation, and affects the child's thinking. such features are shown

Key words: literacy, spelling, native language, word, exercise, education, education, system, problem, active, generalization, reinforcement, unconventional, interactive, innovative, orthography, phonetics, style.

Uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inlariga e'tibor beradigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimi uning dastlabki bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarni nafaqat ta'lim-tarbiyasi balki jismoniy va ruhiy jihatdan ham sog'lom va yetuk bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarga sifatli ta'lim tarbiya berish va savodxonligini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Savodxonlikni shakllanishi bu har bir shaxning jamiyatda o'z o'rini topa bilishi uchun dastlabki qadam bo'lib hisoblanadi, sababi bolada savodxonlik shakllangandan so'ng u keyingi bosqichdagi bilimlarni ham qadamba-qadam qiyinchiliksiz o'rganib boradi.

„Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida ” 2020-yil 22-dekabrda Vazirlar mahkamasining 802-sonli qarori bilan ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat standartlari va umumiy o'rta ta'limga qo'yiladigan davlat standartlarida savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlari o'tish belgilab qo'yilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat standartlarida savodxonlikka o'rgatish haftasiga bir marta belgilangan, shu bilan birga nutq o'stirish mashg'ulotlari ham birgalikda olib boriladi va ular o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi. Tayyorlov guruhlarida savodga o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil qilishda tovush va harflar bilan tanishtirishda ko'proq didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limga qo'yiladigan davlat standartlarida

esa savodga o'rgatish darslari sentabrdan dekabr oyigacha olib borilib haftasiga to'rt marta o'tiladi. Maktabgacha ta'limda savodxonlikka o'rgatish metodikasi va boshlang'ich sinflarda savodga o'rgatish metodikasi kitoblarida bolada savodxonlikni shakllantirish bo'yicha o'zaro uzviy bog'liqlik mujassamlashgan. Masalan „Savodga o'rgatish“ tarbiyachi kitobi va boshlang'ich sinflarda „Ona tili o'qitish metodikasi“ kitoblarida savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlari va darslarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan. Berilgan metodikalarni o'rganib chiqish va shu asosda mashg'ulot jarayonlari uchun ishlanmalar tayyorlash, mujassam mashg'ulotlarni tashkil etish hozirgi kunda tarbiyachidan yaratuvchanlikni va izlanuvchanlikni talab etadi.

Savod darslari o'quvchini tovush-harf bilan tanishtirib, uni o'qishga o'rgatish bilan birga savodxonlikka ham zamin tayyorlashi zarur. Orfografik bilimlar o'quvchilarning nutqini o'stirish, yangi so'zlar hisobiga lug'atini boyitish, so'zlarni turli grammatik formalarda qo'llash, ularning talaffuzi ustida ishlash bilan bir vaqtda shakllantiriladi. Orfografiyani o'rgatishda og'zaki nutqqa tayanib ish ko'riladi. Chunki o'quvchilar eshitgan, o'qigan so'zlarini o'z nutqlarida qo'llaydilar. Buning uchun esa o'sha so'zlarning ma'nosini tushunishlari lozim. Bolalarni o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday ishlar tayyorlov guruhidagi bolalarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, ona tili fanidan bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida shakllantiriladigan imloviy bilim hamda sezgirlik shu davrdan boshlanishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasida imlo ustida ishlashni ikki davrga ajratish mumkin:

1. Imloviy bilim amaliy tarzda o'rgatiladigan davr.

2. Fonetika, so'z yasalishi, so'z tarkibi, grammatika orfografiyadan elementar nazariy bilim berish jarayonida imloviy bilim berish davri. Xat-savod o'rgatish jarayoni imloviy bilim amaliy tarzda o'rgatiladigan davr.. Xat-savod o'rgatish davri eshitish sezgisi orqali so'z tarkibidagi tovushni farqini farqlashga tovush va harf

nisbatini fahmlashga o'rgatadigan ba'zi imloviy qoidalarni amaliy o'zlashtirishda o'ta darajada mas'ul davr hisoblanadi. Ma'lumki, to'g'ri yozuvga o'rgatishning lingvistik asoslaridan biri bo'lgan fonetik xat savod o'rgatish uchun ham ilmiy asos bo'ladi. Bu bog'liqlik imlo ustida ishlashni shu davrdan boshlash lozimini ko'rsatadi. Savodxonlikka o'rgatish savod o'rgatishning dastlabki mavzularidan bo'lgan yozma nutqning ahamiyatini sodda va aniq tushuntirishdan boshlanadi. Bu darsda o'qituvchining yozma nutqni tushuntirishni oldin o'zi o'qitgan va hozirgi o'quvchilari taniydigan o'quvchilarining yozma ishlarini taqqoslagan holda namoyish qilish va ularning qaysi biri yoqqanligini o'quvchilarning o'zlaridan so'rash bilan boshlashi ma'qul, Shundan so'ng mashhur kishilar yozuvi ko'rsatilib, ularning jamiyatdagi o'rni izohlanadi, keyin o'quvchilarning eng asosiy vazifalaridan biri o'zining yoki boshqalarning fikrini to'g'ri hamda chiroyli yozma ifodalashdan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilarda til hodisalariga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish hissi shu tariqa hosil qilinadi, Savodxonlikka zamin hozirlash va imloviy sezgirlikni shakllantirish maqsadida savod darsida analitik-sintetik usulda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlilini uyushtirish, leksik-orfografik, morfologik-orfografik mashq turlaridan foydalanish lozim. Imlosi ustida shunday ishlar uyushtiriladigan so'zlarni lug'at minimumi va lug'at maksimumiga ajratib olish lozim.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi muhim ishlardan biri, bu bolalar MTTda va oilada bolani savodga tayyorlashdan iboratdir. MTTda bolalarga o'qish va yozishga o'rgatishning boshlang'ich bilimlarini berish, ya'ni bolalarga so'z haqida tushuncha berish, so'slardan gaplar tuzishga o'rgatish, gaplarni so'zlarga ajratish va ular tartibini aytishga, o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni aytish hamda ularni so'zlarda tahlil qila olishga, o'rgangan harf va tovushlardan bo'g'n yasay olishga, harf elementlarini yozishga va boshqalarga o'rgatish lozim. Bola maktabga borgunga qadar shunday malakalarga ega bo'lishi, uning maktabda muvaffaqiyatli o'qishining garovi hisoblanadi.

MTTda, oilada o'qish va yozishga o'rgatish umumrivojlantiruvchi yo'nalishga ega bo'lib, u bolada fikr yuritish qobiliyatining axloqiy-irodaviy, estetik va boshqa

shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu davr bolani maktab ta'limiga tayyorlashning muhim sharti, shuning uchun tarbiyachilar savod o'ragtishga tayyorlash davrini, maqsadini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini juda yaxshi bilishlari kerak. Katta guruhlarda nutq bolalar uchun dastlabki o'quv manbai hisoblanadi. Tarbiyachi va ota-ona bolalarni nutqqa haqiqiy til fani sifatida munosabatda bo'lishga hamda bolalarga so'zlarni tovush jihatdan tahlil qilishga o'rgatadi.

Quyida savodga tayyorlash mashg'ulotlari uchun didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz.

«Uchinchisi ortiqcha» o'yini.

Maqsad: Mantiqiy fikrlashga o'rgatish

O'yinning borishi: Tarbiyachi uchta so'z aytadi bolalar esa ortiqchasini topadi. Masalan: olma, anor, sabzi: sabzi so'zi ortiqcha chunki u sabzavot. Qolgan ikkitasi esa meva ekanligini bolalar tushuntirishi kerak.

«Moychechak kimda?» o'yini

Maqsad: harflarni xotirada mustahkamlash. Kerakli jihozlar: Tarbiyachi oldindan 6-7 moychechak gulini tayyorlab olishi va uning orqasiga katta-katta harflarni yozib qo'yishi kerak.

O'yinnig borishi: Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turib olishlarini taklif qiladi va bir bolaga moychechak gullaridan birini beradi va sanashni boshlaydi. Bu vaqtda bolalar moychechakni qo'ldan qo'lga o'tkazadi. Sanashni to'xtatadi va gul kimning qo'lida qolgan bo'lsa o'sha bola moychechak ortidagi harfni, qaysi harf ekanligini aytadi va tarbiyachi topshirig'i bilan moychechak ortiga yashringan harf bilan boshlanadigan 4-6 ta so'z aytishi kerak bo'ladi. Masalan: Moychechak ortida «N» harfi yashringan bo'lsa, bola: -non, Narvon, nina, nay, nog'ara kabi so'zlarni aytishi lozim bo'ladi.

Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmunini, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning birinchi sinfida olib borilayotgan darslarni

kuzatadilar va dars, ta'limiy faoliyatdan keyin birgalikda yig'ilishib muhokama qiladilar, fiklar almashinadi, ayrim metodikalar bo'yicha seminarlarda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashadi, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash va birinchi sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar. Maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari va birinchi sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda bayram tadbirlarini tayyorlash ham maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini maktab hayoti, o'quvchilar bilan yaqinlashtiradi. Tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish mobaynida tarbiyalanuvchilar birinchi sinf o'quvchilari bilan muloqotda bo'ladi, yaqindan tanishadi, o'rtoqlashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bayramlarda tarbiyalanuvchilar uchun o'z qo'llari bilan sovg'alar tayyorlashadi. tayyorlagan sovg'alarini bolalarga bayram tuhfasini qilib berishadi. Maktabda o'qish jarayoni albatta tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun birmuncha qiyinchilik to'g'iradi, shu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida bolalarni maktab hayoti bilan, o'quvchilar bilan yaqinlashishiga muloqotda bo'lishiga sharoit yaratib berishimiz zarur. Bolalar maktab hayotining o'ziga xos xususiyatlari tanishishlari va kirish darslarini o'tkazish uchun maktab o'qituvchilari bo'lajak birinchi sinf o'quvchilari uchun maktabga kirishdan oldin ma'lum muddat kirish darslarini o'tadilar. Bu o'z navbatida tarbiyalanuvchilarni maktabga tez moslashib ketishini ta'minlaydi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga. Axloqiy sifatlariga o'quv dasturini o'zlashtirishda me'yoriy bajarilishini ta'minlashshiga, qo'llanmalarining monandligiga bog'liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z yechimi ifodasini topishi va o'z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Asosiy davr (Savodga tayyorlash). Savodga o'rgatishning

tayyorgarlik davri vazifalari sentabr, oktabr oylarida rejalashtiriladi. Bu davrda quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish.
2. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish.
3. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish.
4. Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
 - a) gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;
 - b) ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);
 - d) so'zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash; e) tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish; f) tovushlarni eshitishda farqlashga o'rgatish.

Tayyorlov guruhida nutq, o'qish va savodga tayyorlash yo'nalishining savodga o'rgatish bo'limi 2-bosqichi - asosiy davrida (oktabr-may) quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish.
2. Kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatib borish;
3. Bo'g'in o'qish;
4. Kesma harflar yordamida bo'g'in va so'zlarni tuzish va ularni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish. Tayyorlov guruhlarida yil davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi va ketma-ketlikda olib borilishi kerak. Mashg'ulotlar ishlanmasida mavzuning maqsad-vazifalari, kutilayotgan natijalar, kerakli jihozlar, mashg'ulotning borishi to'liq yoritiladi. Mashg'ulot mavzulari bolalar uchun tushunarli, amaliy ishlar va turli interfaol o'yinlar bolalar yoshiga mos, qiziqarli va turli bo'lishi lozim. Mashg'ulotlar davomida bolalar barmoq mashqlarini tetiklashtiruvchi daqiqalarda bajaradilar, harflar bilan maxsus o'yinlar (yig'ish, terish), amaliy ishlarni bajarib, alifbeni bilib, bo'g'inlarni o'qiy olish ko'nikmalari mustahkamlanib boradi.

Xulosa

Tayyorlov guruhidagi bolalarni savod o'rganishga tayyorlash eng dastlabki bosqichi hisoblanib, bu davrga o'qituvchi jiddiy e'tibor berishi lozim. Buning uchun tayyorlov guruhidagi bolalarning bilimlarini aniqlash, tayyorlov guruhidagi bolalarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan tayyorlov guruhidagi bolalarning bilimlarini yaxshi biladigan tayyorlov guruhidagi bolalarga yetkazib olish vazifasi turadi. Bu vazifalarni hal etishi uchun o'qituvchi alohida maxsus daftar tutib, tayyorlov guruhidagi bolalar bilimlarini o'rganishning rejasini tuzadi. Imlo savodxonlikni tarkib toptirishda talaffuz orqali yozdirish ham samarali usul hisoblanadi. Bu usul so'zning to'g'ri talaffuzi va imlosini eslab qolishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ahmedova N. Maktabgacha ta'lim muassasasi larda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, "Sharq", 1999.-B.128.
2. Qosimova K. Maktabgacha ta'lim muassasasi larda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1985. –B. 216.
- 3.Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
- 4.Mavlonova K. [va boshq.]Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b
- 5.. Anna Golubeva, D.Shankar, V.Nazarova, Y.Narolskaya, M.Ismoilova, Li Dong Vuk. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat o.,quv dasturi. Toshkent-2018.-107 b.
6. Grosheva I.V., Say E.F.,Mirjalilova S.S., Medvedeva N.I. "Ilm yo'li" variativ o'quv dasturi. Toshkent-2019.
7. M.R.Is'hoqova, M.Z. Fayzullaeva,J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M. Sultonova. 168 "Savodxonlikka o'rgatish" Tarbiyachi kitobi. Toshkent-2018
8. Sh.Fayzullayev. „Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi“.O'quv qo'llanma. Samarqand-2020.

9. K.Qosimova, S.Matjonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, Sh.Sariyev“Ona tili o‘qitish metodikasi“. Toshkent „Nosir“ nashriyoti-2009.
- 10.Asqarova M., Matchonov S. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o,,stirish. Toshkent. “O,,zbekiston”, 2001 y.
- 11.Fayzullayeva M., Rustamova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish. (Tayyorlov guruhi uchun mashg‘ulotlar ishlanmasi) Toshkent. 2009 yil.